

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

Ro'yxatga olindi

No \_\_\_\_\_  
“\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2023-y.

**“Tasdiqlayman”**

O'quv ishlari prorektori  
\_\_\_\_\_  
“\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2023-y.  
P.A.Eshonqulov

**“PATENTSHUNOSLIK, LITSENZIYALASH VA  
SERTIFIKATLASH”  
fanidan**

**SILLABUS**

|                       |          |  |
|-----------------------|----------|--|
| <b>Bilim sohasi:</b>  | 800000   | Qishloq va suv xo'jaligi                                       |
| <b>Ta'lif sohasi:</b> | 810000   | Qishloq xo'jaligi  |
| <b>Mytaxassislik:</b> | 70810101 | Qishloq xo'jaligini exanizatsiyalahtirish<br>(dehqonchilik)    |
| <b>Bilim sohasi:</b>  | 100000   | Qishloq va suv xo'jaligi                                       |
| <b>Ta'lif sohasi:</b> | 110000   | Qishloq xo'jalik texnikasi                                     |
| <b>Mytaxassislik:</b> | 60112400 | Professional ta'lif (qishloq xo'jaligini<br>mexanizatsiyalash) |

**Qarshi-2023-y.**

**“Patentshunoslik, litsenziyalash va sertifikatlash” fani**  
**SILLABUSI**

| Fanning nomi:  | Fan (modul) turi                                       | Fan (modul) kodi                     | Ta’lim tili:                                |
|--|--|--------------------------------------|---|
| <i>Patentshunoslik, litsenziyalash va sertifikatlash</i> | <i>Tanlov fan</i>                                      | <i>PLS-51104</i>                     | <i>o’zbek</i>                               |
| <b>O‘quv yili:</b><br><br>2022/2023                      | <b>Kurs va semestr</b><br><br><i>I kurs, I semestr</i> | <b>ECTS krediti:</b><br><br><b>4</b> | <b>Haftalik dars soati:</b><br><br><b>4</b> |
| <b>Umumi o‘quv soatlari:</b><br><br>120                  | <b>Ma’ruza:</b><br><br>30                              | <b>Amaliy mashg‘ulot:</b><br><br>30  | <b>Mustaqil ish:</b><br><br>60              |

**I.Fanning mazmuni**

O‘zbekistonda iqtisodiy munosobatlar tobora mustahkamlanib bormoqda. Respublikamiz yanada rivojlanish uchun yangi texnologiyalar hamda tayyor mahsulotlarni ichki va jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirilishi respublikamizda intellektual faoliyatning natijalarini huquqiy muhofazalanishi va tijoratlashtirilishini ta’minlash uchun yaxlit va oqilona tizimni barpo etilishi talab qilinadi. O‘zbekiston Respublikasida deyarli barcha intellektual mulk obekt turlari boyicha huquqiy muhofazalash uchun tegishli imkoniyatlar mavjud.

Intellektual mulkni muhofazalash huquqlari bo‘yicha samarali tizim yaratish uchun zarur bo’lgan poydevor negizlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bayon etilgan. Intellektual mulk to‘g‘risidagi qonuniy asoslar O‘zbekiston Respublikasi Fuqorolik Kodeksida intellektual mulk masalalariga bag‘ishlangan maxsus IV-bo‘limida belgilangan. Intellektual faoliyati natijalarini, texnologiyalarini xalqaro bozorlarida mavjud bo’lgan kuchli raqobatga chidamli mahsulotlar darajalariga yetkazish lozim. Shu bilan birga zamонави innovatsiyaning tadbirkorlik va intellektual mulk huquqlari sohalarida malakali mutaxassislarni tayyorlash masalalari ayniqsa dolzarbdir.

Patentshunoslik sohasidagi muayyan bilimlarga ega bo‘lish butun jahondagi ilg‘or texnologiyalardan foydalanishga yo‘l ochib beradi, o‘z ixtiolarini yaratish, ulardan samarali yo‘llar bilan foydalanish, litsenziyalarni sotish va sotib olish, patent tadqiqtolari o‘tkazish yo‘llarini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda hal etilishi lozim bo’lgan masalalarni yechimi uchun Respublikamizga “Patentshunoslik, litsenziyalash va sertifikatlash” sohasida jahon andozalariga mos keluvchi yuqori malakali mutaxassislar kerak. Shu kunning mutaxassisiga, birinchidan, iste’molchilarini ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda

intellektual bozorni har tomonlama tahlil qila bilish, ikkinchidan bozorga ta'sir eta bilish talabi qo'yiladi.

**Fanni o'qitishdan maqsad** – “Patentshunoslik, litsenziyalash va sertifikatlash” bo'lajak magistrlarni patent axborotining hozirgi oqimini tahlil qilish, yaratilayotgan ilmiy ishlanmalar, konstruktorlik yechimlari, texnologiyalarni intelektual mulk obektlari sifatida huquqiy muhofazalash, shuningdek bu obektlardan foydalanishda huquqiy va iqtisodiy jihatdan to‘g‘ri qarorlar qabul qilishni, standartlashtirishning qonun-qoidalariga rioya qilish borasida sertifikatlashtirish xalqaro talab va qoidalariga amal qilishni o‘rganib olsinlar.

**Fanning vazifasi** – O‘zbekiston Respublikasi va xorijda intelektual mulk obektlarni muhofazalash bo‘yicha amaliy bilimlarni berishdan iborat. Fanni o‘rganish natijasida talabalar ixtirorlar, foydali modellar, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlarini patentlash uchun talabnomalar tuzish, tovar belgilari, EHM uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalarini ro‘yxatdan o‘tkazish, litsenziya shartnomalari tuzish, O‘zbekiston va yetakchi industrial mamlakatlarning patent hujjatlari bilan ishslash, turli patent tadqiqotlar o‘tkazish malakalarini egallashlari, standartlashtirish obektlarini aniqlash, turli standartlar bilan tanishish va ishslash, sifatni boshqarish, standartlashtirishning qonun-qoidalariga rioya qilish borasida sertifikatlashtirish xalqaro talab va qoidalariga amal qilishni o‘rganish va ularning ishlatilish sohalarining nazariy asoslarini o‘rgatishdan iborat.

## **II. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentliklar)**

Patentshunoslik, litsenziyalash va sertifikatlash fani quyidagi asosiy bo‘limlardan iborat.

1. Patentshunoslik, litsenziyalash va sertifikatlash faniga kirish: o‘rganilayotgan fanning maqsadi va vazifalari. Davlat iqtisodiyotini rivojlantirishda inson omilining roli. Intelekt mul obektlarning tasnifi, huquqiy sohalari va savdosи.
2. Intelektual mulkni muhofazalash, muhofaza xujjatarining turlari patentlarni olish tartibi. Intellektual mulkni muhofazalash sohasida O‘zbekiston qonunchilik hujjatlari. Mualliflik huquqlari va alohida huquqlar, intelektual mulk sohasida huquqiy subektlar. Muhofaza hujjatlarining turlari, muhofaza muddatlari. Patentlarni olish tartiblari, patentlarning amal qilishining tugatilishi. Patent bo‘yicha ishonchli vakillar va patent agentlari. Mualliflik huquq va turdosh huquqlar.
3. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar. Mualliflik huquqi obektlari. Asarlar mualliflari va hammualliflarining huquqlari. Mualliflik huquqining tamoyillari. Mualliflik huquqining amal qilish muddati. Mualliflik huquqining muhofazalash belgisi. Turdosh huquqlarning mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari. Turdosh huquqlarni muhofazalash belgisi. Mualliflik huquqining amal qilish hududi. Mualliflik huquqini muhofazalash sohasida xalqaro konvensiyalar.
4. Ixtirolar. Ixtiro obektlari. Ixtironing patentga layoqatliligining shart-sharoitlari. Ixtiroga patent olish uchun tuziladigan talabnama hujjatlari tarkibi.
5. Ixtiroga patent olish tartibi. Talabnomaning rasmiy ekspertiza, Ustuvorlik sanasi. Ixtironing analogalari va prototipi. Ixtiro tavsifi. Ixtiro formulasi. Turli obektlar uchun ixtiro formulasini tuzish.

6. Sanoat namunalari. Tovar belgilari. Sanoat namunalarini tavsiflovchi belgilar. Sanoat namunasining patentga layoqatlilik shartlari. Sanoat namunasiga talabnomalarning tuzilishi va patentlash tartibi. Tovar belgilarning turlari. Tovar belgisini ro'yxatga olishga talabnoma tuzish.

7. Patent axboroti. Patent tadqiqotlarini o'tkazish. Patent axborotining roli. Patent axborotining manbalari. Xalqaro patent tasnifi. Patent axborotini qidirishning asosiy usullari.

8. Xorijiy patentlash. Xorijiy patentlashning asosiy tamoyillari va mexanizmlari. Sanoat namunalarini xalqaro deponentlash.

Parij konvensiyasi. Madrid bitimi va shartnomasi. Patent kooperatsiyasi to'g'risida shartnama. Xalkaro intellektual mulk va patent tashkiloti. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti. Yevropa patent idorasi. Yevro patentni olish.

9. Litsenziya bitimlari. Litsenziya bitimlarining turlari. Litsenziya bitimining struktursi. Litsenziya bitimlarini imzolash uchun zaruriy shart va muhim belgilari va tasniflari. Litsenziya shartnomalari guruhlarining xususiyatlari. Innovatsiya tushunchasi. Innovatsiyani tasniflash. Innovatsiya loyihalari. Innovatsiya loyihasini tuzish va amalga oshirish bosqichlari.

10. Sertifikatlash xaqida umumiy tushunchalar. Sertifikatlash sxemalari (1-8). Sertifikatlashning milliy tizimi. Sertifikatlashtirishning maqsad va afzaliklari. Asosiy atamalari. O'zR milliy sertifikatlashtirish tizimi.

### **III. Ta'lim texnologiyalari va uslublari**

Fanni o'qitishda an'anaviy usullar bilan bir vaqtida yangi texnologiyalardan foydalanish samarali bo'ladi. Bu ishda talabaning mustaqil ishini to'g'ri tashkillashtirishga intilish lozim; o'qitishning elektron vositalari, internet orqali olinadigan ma'lumotlar, elektron darsliklar; interaktiv usuldan foydalanish; ekspress so'rovlari; texnik vositalarni qo'llash va boshqa usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, masofadan o'qitish (modul platformasi), darslik, o'quv qo'llanmalari va ma'ruzalar matnlarining elektron versiyalari, ma'ruzalar o'qish, video-audio mashg'ulotlar va elektron resurslar (Internet tarmog'i orqali) dan foydalaniladi.

O'qitish uchun darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, animatsiyalar, amaliy mashg'ulot darslarida mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan: munozara, jamoaviy muhokama yoki muammolar ruyxatini tuzish, vaziyatni o'rganish, tahlil qilish, babs yoki munozaralar olib borish, tanqidiy fikrlash, rolli o'yinlar, kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, klaster (tutam, bog'lam), baliq skeleti, FSMU, bumerang, "T-sxema", blits-so'rov, "Nima uchun?" texnologiyalari, ma'ruza mashg'uloti- BBXB (Bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim), konseptual va insert jadvallaridan keng foydalaniladi.

Fan bo'yicha ma'ruza matnlarini tayyorlashda chet mamlakatlar, jumladan Hamdo'stlik mamlakatlarida yangi chop etilib, Internet tizimi orqali tarqatilgan elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalar va ma'ruza matnlaridan foydalaniladi.

Amaliy mashg'ulotlarda mashinalarning ishchi qismlari, ularning tuzilishi va ishlash prinsipini hamda ularning animatsiya ko'rinishida va fan bo'yicha savol javoblardan, laboratoriya mashg'ulotlarida mashina va jihozlardan foydalaniladi.

**Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.** Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondashuv.** Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

**Dialogik yondashuv.** Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.** Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta'lim.** Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

**O'qitishning usullari va texnikasi.** Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, loyihalash usullari, amaliy ishlar.

**O'qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

**O'qitish vositalari:** o'qitishning an'anaviy shakllari (garslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

**Kommunikatsiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy, yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejulashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baholash:** o'quv mashg'ulotida ham, butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

Dastur talabalar bilimini reyting-nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning kredit-modul tizimi tamoyillari asosida amalga oshadi.

#### IV. Fan tarkibi (ma'ruza mashg'ulotlari)

| <b>Nº</b> | <b>Mavzular</b>  | <b>Qisqacha mazmuni</b>   | <b>Ma'ruza</b> | <b>Amaliy<br/>mashg'ulot</b> | <b>Laboratoriya<br/>mashg'ulotlari</b> | <b>Mustaqil ish</b> |
|-----------|--|---|----------------|------------------------------|--|---------------------|
| 1         | <b>1-mavzu.</b> Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida patentshunoslik, litsenziyalash va sertifikatlash fanining maqsadi va vazifalari | «Patentshunoslik, litsenziyalash va sertifikatlashtirish» fanning vazifalari, asosiy tushunchalari va atamalari. «Intelektual mulk» tushunchasi. Intelektual mulk huquqi va jamiyatning rivojlanishi. Patent xuquqi haqida tushuncha. Patent xuquqining rivojlanish tarixi. Milliy patent tizimlarining tasniflanishi | 2              | 2                            |  | 6                   |
| 2         | <b>2-mavzu.</b> Intellektual mulk obektlarini muhofazalash sohasidagi qonunchilik  | Intellektual mulk muhofazalash sohasida O'zbekiston qonunchilik xujjalari tizimi. Mualiflik xuquqlari va alohida huquqlar, intellektual mulk soxasida huquqiy subekt. Alovida xuquqlarning cheklanish xollari. Patent buyicha ishonchli vakillar va patent agentlari.   | 2              | 2                            |  |                     |
| 3         | <b>3-mavzu.</b> Ilmiy kashfiyotlar, uning obektlari ehm uchun dastur va ma'lumot bazalari  | Kashfiyot. Kashfiyot ustunligi. Kashfiyotlarni aniqlash. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni.  | 4              | 2                            |  | 6                   |
| 4         | <b>5-mavzu.</b> Ixtiro va litsenziyalash   | Ixtiro va litsenziyalash. Intellektual faoliyat. Yangi g'oY. Texnik yechim Patent davlat nomidan sanoat mulki obektiga beriladigan va muayyan hududda muayyan vaqt oralig'ida amal qiladigan muhofaza hujjati sifatida.   | 2              | 4                            |  | 8                   |
| 5         | <b>6-mavzu.</b> Seleksiya yutuqlari  | O'simliklarning yangi navlar. Yangi zotlar va seleksiya yutuqlari. Nav va zotlar. O'zbekistonda seleksiya yutuqlariga huquqlar patent yoki guvohnoma berish. Seleksiya yutug'iga patent berish. Seleksiya yutug'inining yangilagini aniqlash. Ekspertiza va davlat sinovlari.   | 2              | 2                            |  | 8                   |

|    |  |   |   |   |  |    |
|----|--|---|---|---|--|----|
| 6  | <b>7-mavzu.</b><br>Sanoat namunalari. Mahsulot belgisi. Asosiy tushunchalar      | Sanoat namunalarini tavsiflovchi belgilar. Sanoat namunasining patentga layokkatlilik shartlari. Sanoat namunasiga talabnomalarning tuzilishi va patentlash tartibi. Tovar belgilarning turlari. Tovar belgisini ruyxatga olishga talabnoma tuzish.   | 4 | 2 |  | 8  |
| 7  | <b>7-mavzu.</b><br>Patent, litsenziya va sertifikat olish uchun shartnoma tuzish | Intellektul mulk obektlari. Ilmiy kashfiyotlar va ixtiolar. Patent, litsenziya va bajarilgan ishlarni sifat ko'rsatkichlarini aniqlash. Sertifikatlarni qonun talablaridan kelib chiqqan holda berish. Mualif va mualliflik huquqlari.  | 4 | 2 |  | 8  |
| 8  | <b>8-mavzu.</b><br>Patent axboroti   | Aniq va o'z vaqtidagi axborotga ega bo'lish. Muvaffaqiyat va mag'lubiyat. Hal qilingan muammo. Tadqiqot olib borish vaqt. Patent axboroti. Universal axborot resursi. Zamonaviy texnika yutuqlaridan tez va to'la xabardor bo'lib.  | 2 | 2 |  | 10 |
| 9  | <b>9-mavzu.</b><br>Xalqaro patent tasnifi  | Butun jaxon intellektual mulk tashkiloti. Butun jaxon intellektual mulk tashkilotining tarixi. Sanoat mulkini muhofaza qilish Parij konvensiyasi. Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish Bern konvensiyasi. "Xalqaro byurolar". "Intellektual mulkni muhofaza qilish bo'yicha birlashgan xalqaro byurolar".   | 2 | 2 |  | 10 |
| 10 | <b>10-mavzu.</b><br>Xalqaro patent tizimlari                                     | BIMT shuningdek rivojlanayotgan mamlakatlarda patent tizimining shakllanishiga texnik va molivayi yordam ko'rsatish. BIMT faoliyati butun jahonda intellektual mulk xuquqlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish asosi sifatida.  | 2 | 2 |  | 10 |
| 11 | <b>11-mavzu.</b><br>Yevropa va AQSH patent idorasi va huquqchiligi               | G'arbiy Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya. Yagona Yevropa patent tizimining tuzilishi. Yagona Yevropa patent tizimi. Yevropa patent konvensiyasi. Yevropa patent tizimining Konvensiyaga muvofiq amal qilishi. Yevropa patent idorasi Konvensiya ishtirokchi davlatlarining nomidan Yevropa patentlarini berish. Yevropa patent tizimi. | 2 | 2 |  | 10 |

|    |  |   |           |           |   |            |
|----|--|---|-----------|-----------|---|------------|
| 12 | <b>12-mavzu.</b><br>“MDH” patent idorasi va huquqchiligi | Bugungi Rossiya qonunchiligi. Rossiya va boshqa MDX mamlakatlarida rivojlanayotgan zamonaviy patent tizimi. Rossianing yangi patent qonuni. Yetakchi xorijiy mamlakatlar patent qonunchiligi. | 2         | 2         |   | 10         |
|    | <b>Jami:</b>   |   | <b>30</b> | <b>30</b> | - | <b>120</b> |

### Amaliy mashg‘ulotlar

| t/r | Mavzular nomi                                      | Soat         |
|-----|--|--------------|
| 1   | Xalqaro patent tasnifining tuzilmasi               | 2            |
| 2   | Qurilma uchun ixtiro formulasini tuzish            | 2            |
| 3   | Usul uchun ixtiro formulasini tuzish               | 2            |
| 4   | Ixtiroga referat tuzish                            | 2            |
| 5   | Ixtiroga referat tuzish                            | 2            |
| 6   | Qurilma uchun ixtiro tavsifini tuzish              | 2            |
| 7   | Ixtironing analog va prototiplarini aniqlash       | 2            |
| 8   | Ixtironing analog va prototiplarini aniqlash       | 2            |
| 9   | Sanoat namunaning muhim belgilari tavsifini tuzish | 2            |
| 10  | Sanoat namunaning muhim belgilari tavsifini tuzish | 2            |
| 11  | Sanoat namunaning tavsifini tuzish                 | 2            |
| 12  | Patent tadqiqotlarini o‘tkazish                    | 2            |
| 13  | Patent tadqiqotlarini o‘tkazish                    | 2            |
| 14  | Litsenziya bitimini tuzish                         | 2            |
| 15  | Litsenziya bitimini tuzish                         | 2            |
|     | <b>Jami:</b>                                       | <b>30 s.</b> |

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha kafedra professor-o‘qituvchilar tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma’ruza mavzulari bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarini amaliy masalalar echish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o‘quv qo‘llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustaxkamlashga erishish, tarqatma materiallardan faydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar echish, mavzular bo‘yicha ko‘rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

### V. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o‘qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

“Patentshunoslik, litsenziyalash va sertifikatlash” fanini kengroq va batafsil o‘rganishda korxonalar, patent idoralari ma’lumotlaridan mustaqil foydalanilsa mavzularning asosiy mazmunini chuqurroq o‘rganishga yordam beradi. Mustaqil ishning asosiy maqsadi - talabalar tomonidan mazkur fanni chuqurroq o‘zlashtirishlari uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iboratdir. Bunda talabalar quyidagilarni bajarishlari lozim: yangi zamonaviy usullar asosida bilimga ega bo‘lishi uchun mustaqil ravishda qo‘srimcha mavzularni o‘zlashtira olish, zaruriy ma’lumotlarni izlab topishning qulay va samarali usullaridan foydalanila bilish hamda topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashishlar. Mustaqil ishning tashkiliy shakllari bo‘lib, ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlar yordamida mustaqil o‘zlashtirish, berilgan mavzu bo‘yicha axborot (referat) tayyorlash, nazariy bilimlarni amaliyatda qo‘llash va ilmiy maqola, anjumanga ma’ruza tezislardan tayyorlash kabilar hisoblanadi. Talabaning mustaqil ishini qabul qilish ma’ruza yoki amaliy mashg‘ulot olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan kafedrada ishlab chiqilgan maslahatlar berish jadvali asosida amalga oshiriladi va ular guruh jurnalida qayd etiladi.

### **Mustaqil ishlarning tavsiya etilayotgan mavzulari:**

| <b>T/r</b>   | <b>Mavzular nomi</b>   | <b>soat</b> |
|--------------|--|-------------|
| 1            | Talabaga mutaxassisligi boyicha muayyan ilmiy-texnika ishlanmasi taklif etiladi. Bu ishlanma eksportga chiqariladi deb mo‘ljallangan holda uning patent sofligini tadqiqot natijalari bo‘yicha hisobot tuziladi.   | 15          |
| 2            | Ixtiolar guruhiga talabnama tuzishga oid: Talabaga biri ikkinchisini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan ikkita texnik yechimning tavsifi taklif etiladi. Texnika darajasidan har bir ixtironing analog va prototiplarini aniqlanadi. Ixtironing ko‘p zvenoli formulasi va tavsifini tuzish.   | 15          |
| 3            | Sanoat namunasiga talabnama tuzish boyicha: Talabaga muayyan badiiy konstruktorlik yechimi taklif etiladi. Patent qidiruv o‘tkazish va bu yechimning analoglarini topish zarur. Tahlil natijasida tadqiq etilayotgan yechimning muhim belgilarini topish zarur. Tahlil natijasida tadqiq etilayotgan yechimning muhim belgilari majmuini aniqlash va sanoat namunasi tavsifini tuzish. | 15          |
| 4            | Talaba intelektual mulk sohasidagi asosiy xalqaro konvensiyalar va shartnomalarni o‘rganishi zarur. Bu sohada kooperatsiya yuzaga kelishi va rivojlanishning asosiy sabablarini taxlil qilish. Tadqiqot natijalari bo‘yicha referat tuzish.  | 15          |
| <b>Jami:</b> |  | <b>60</b>   |

### **VI. Talabalar bilimini baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar**

Fanga oid nazariy materiallar ma’ruza mashg‘ulotlarini ma’ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma’ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilish va o‘zlashtirish mashg‘ulotlarga to‘liq ishtirok etish va modul (Hemis) platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta’lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo‘yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo‘yicha talabalalar test usulida oraliq nazorat va og‘zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o‘zlashtirgan talabalarga tegishli ta’lim yo‘nalishi (magistratura mutaxassisligi) o‘quv rejasida ushbu fanga ko‘rsatilgan kredit beriladi.

## **Tavsiya etilayotgan adabiyotlar**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. “Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni - 1994-yil 6-mayda qabul qilingan, 2002-yil 29-avgustda o‘zgartirilgan.

2. “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni – 2001-yil 30-avgustda qabul qilingan.

3. “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni – 2006-yil 20-iyulda qabul qilingan.

4. “EHM uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarini huquqiy muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni – 1994-yil 6-mayda qabul qilingan.

5. “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni - 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan, 2002-yil 29-avgustda o‘zgartirilgan.

6. “Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni-2001-yil 12-mayda qabul qilingan.

## **Qo‘shimcha adabiyotlar**

1. Djumaxodjayev A.Z. Patentshunoslik, OUYU uchun darslik -T. «Mehnat», 2001.

2. Djumaxodjayev A.Z. Ilmiy-texnika mahsulotlari va innovatsiya loyihalarini tijoratlashtirish jarayonida intelektual mult obektlarini xalqaro muhofazalash hamda xorijiy litsenziyalash – T. “Mehnat”, 1999.

3. Patentovedeniye. Pod redaksiyey Ryasenseva V.A.-M.Mashinostroyeniye, 1984.

4. Turkmenov X.I., Yesenbekova R.K. Patenshunoslik, litsenziyalash va sertifikatlashtirish fanidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish bo‘yicha metodik qo‘llanma. Tashkent, 2011.

5. Metodicheskoye posobiye k vopolneniyu laboratornix i prakticheskix rabot po predmetu “Metrologiya, standartizasiya i sertifikat”. Sostaviteli: Axmedov M.X., Turkmenov X.I., Shermuxamedov X.P., TIIM, 2008.

6. Mahsulot belgisi va xizmat ko‘rsatish belgisini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun talabnama tuzish qoidalari - T. “Rasmiy axborotnoma”, № 3 , 1997.

Fanning sillabusi fakultet Uslubiy Kengashining 2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_dagi  
“\_\_\_”-sonli yig‘ilihi, institut Uslubiy Kengashining 2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_dagi  
“\_\_\_”-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va ma'qullangan.

### **Fan (modul) uchun mas'ullar:**

**Aliqulov S.R.** – *Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish  
va servis kafedrasi professori*

**Norchayev R.** - *“Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish  
va servis” kafedrasi dotsenti*



